



XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2024-yil 9-aprel

VI-101-54-7-94-K/24

Jomboy tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muxofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-sonli Farmonining tumandagi ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muxofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-sonli Farmonining ijrosi to‘g‘risidagi qarorini ijrosini ta‘milash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24- moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq to‘qson to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muxofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-sonli Farmonining ijrosi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jomboy tumanida 2024-yil bahor mavsumida manzarali, mevali daraxt va butalar ko‘chatlarini tuman aholisi va tumandagi tashkilotlar kesimida ekishning prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (B.Mamatov)ga:

- tuman markazlarida arxitektura va landshaft-dizayn talablari asosida shaharga ko‘rk beruvchi manzarali ko‘chatlarni ekish choralari ko‘rsin;

- ko‘chat ekish va ularni to‘liq undirib olish uchun sug‘orish ishlarini tashkil etish bo‘yicha yuzaga keladigan muammolarni tezkor hal etish;

- ekilgan ko‘chatlarni parvarishlash, ularni payhon qilinishdan saqlash yuzasidan monitoring olib borish;

- har haftada ishchi guruh tomonidan tahliliy ma‘lumotlarni tuman hokimiga taqdim etish.

- belgilangan tartibda 2024-yil bahor mavsumida ekiladigan daraxt ko‘chatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni “yashil makon.eko.uz” yagona elektron bazasi negizida shakllantirsin hamda ularning ushbu bazaga muntazam kiritib borilishini ta‘minlasin.

- ekilgan daraxt ko'chatlarini mavsum davomida parvarishlash, ularni zararkunandalardan himoya qilish va payhon etilishining oldini olish ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (N.Mamatqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SOBIROV KAYUM
XAMRAYEVICH

Xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining
2024-yil 9-apreldagi
VI-101-54-7-94-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Jomboy tumanida 2024-yil baxor mavsumida manzarali, mevali daraxt va butalar ko'chatlarini tuman aholisi va tumandagi tashkilotlar kesimida ekishning prognoz ko'rsatkichlari to'g'rsidagi
MA'LUMOT**

T/R	Tashkilot va muassasalar nomi	Manzarali, mevali daraxt va butalar ko'chatlar ekiladigan manzili	Quduq o'rnatish rejasi	Ekiladigan daraxt ko'chatlari soni (tup)
			40	751700
Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Sadullayev			10	20500
1	Milliy bank tuman filiali	Uzunovul massivi hududiga	1	4000
2	Agrobank tuman filiali	Uzunovul massivi hududiga	1	4000
3	Xalq banki tuman filiali	Uzunovul massivi hududiga	1	3000
4	Tuman g'aznachilik bo'limi	Kattaqishloq mahallasi Kanal yoqasi hududiga	1	1500
5	Tuman pensiya jamg'armasi bo'limi		1	1000
6	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi	Mahallalar hududlariga	1	1500
7	Tuman Statistika bo'limi	Juriyat mahallasi	1	1000

8	Tuman Savdo sanoat palatasi	hududiga	1	500
9	Tuman “Juriyat” dexqon bozori		1	1500
10	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Kanal yoqasida hududiga	1	1500
11	Tuman “Shayman” dehqon bozori		1	1000
Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Xasanov			3	5000
1	“UZ TRUCK AND BUS MOTORS” MChJ shaklidagi qo‘shma korxonasi	Zarafshon mahallasi hududiga	1	1500
2	OOO “UZAvto Trailer” korxonasi		1	1500
3	Jomboy shifer sement zavod		1	2000
Tuman hokimining o‘rinbosari B.Mamatov			13	77500
1	Tumani elektr tarmoqlari korxonasi	Temir yo‘l yoqasi hududida	1	1500
2	“Jomboytumangaz” filiali		1	1500
3	“Samtelekom” tuman filiali		1	1500
4	Davlat kadastrlari palatasining tuman filiali		1	1300
5	Kadastr agentligi Jomboy tuman bo‘limi		1	1500
6	Jomboy tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi		1	1500
7	Tuman uy-joy kommunal va qurilish bo‘limi		1	500

8	Tuman yo‘llardan foydalanish korxonasi	M-39 avtomobil yo‘li yoqasida hududiga	1	29000
9	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi		1	36000
10	Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi		1	1200
11	“Samarqand suv ta’minoti”MCHJ tuman filiali		1	1000
12	Tumandagi yashil bog‘ maydoni		1	1000
13	Tuman hokimligi bog‘i		1	0
Tuman hokimining o‘rinbosari J.Rajabov			10	81100
1	Tuman yoshlar ishlari agentligi	M-39 avtomobil yo‘li yoqasida hududiga	1	3000
2	Tuman davlat sanitariya va epidemiologiya- osoyishtalik markazi bo‘limi		1	3000
3	O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi	O‘z hududlarida	1	55000
4	Oliy va o‘rta maxsus		1	1100
5	Tumandagi 1-kasb xunar maktabi		1	500
6	Tumandagi 2-kasb xunar maktabi		1	500
7	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi		1	9000
8	Tuman tibbiyot birlashmasi		1	6000
9	Tuman bolalar va o‘smirlar sport maktabi		1	2000

10	Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi	M-39 avtomobil yo'li yoqasida hududiga	1	1000
Tuman hokimining o'rinbosari A.Ikramov			7	567600
1	Qishloq xo'jaligi bo'limi	Fermer xo'jaliklari ekin yer maydonlari dala chetlari va kanal yoqalaridagi hududlariga	1	4000
2	"Agroinspeksiya" tuman bo'limi		1	2000
3	Tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqa yer egalari Kengashi		1	4000
4	Tuman veterinariya bo'limi		1	2000
5	Tuman o'simliklar karantini bo'limi		1	2000
6	Tumandagi fermer xo'jaliklari		1	495600
7	Jomboy Davlat o'rmon xo'jaligi		1	45000
8	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi		1	13000